

MEVA-SABZAVOTCHILIK EKSPORT HAJMINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Ergashev Jamshid Axmadaliyevich

Toshkent Davlat Agrar Universiteti Biznesni boshqarish kafedrası tayanch doktoranti.
tel.: +998941674171

e-mail: jamshidergashev010@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17098331>

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yuqori texnologiyalardan foydalanish, resurs tejankor texnologiyalar yordamida meva-sabzavotchilik mahsulotlarining tannarhiga ta'sir qiluvchi xarajatlarini kamaytirish orqali eksport imkoniyatlarini oshirish masalalariga to'xtalib o'tilgan., meva-sabzavotchilik sohasini zamonaviy ko'rinishga olib chiqish, eksport samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Kalit so'zlar: meva-sabzavotchilik sohasi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, eksport, statistika, iqtisod, strategiya, yangi texnologiyalar, eksport samaradorli, ishlab chiqarish, internet olami.

ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ УВЕЛИЧЕНИЯ ОБЪЕМОВ ЭКСПОРТА ПРОДУКЦИИ ВЫРАЩИВАНИЯ ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ

Резюме: В данной статье рассматриваются вопросы использования высоких технологий в развитии сельского хозяйства, увеличения экспортных возможностей за счет снижения издержек, влияющих на себестоимость плодоовощной продукции, применения ресурсосберегающих технологий, модернизации плодоовощной отрасли, проведения исследований по повышению эффективности экспорта.

Ключевые слова сектор фруктов и овощей, развитие сельского хозяйства, экспорт, статистика, экономика, стратегия, новые технологии, эффективность экспорта, производство, интернет-мир.

WAYS TO USE MODERN TECHNOLOGIES TO INCREASE THE VOLUME OF FRUIT AND VEGETABLE GROWING EXPORTS

Resume: This article addresses the issues of using high technologies in the development of agriculture, increasing export opportunities by reducing costs that affect the cost of fruit and vegetable products using resource-saving technologies, modernizing the fruit and vegetable sector, and conducting research on export efficiency.

Key words: fruit and vegetable sector, agricultural development, export, statistics, economy, strategy, new technologies, export efficiency, production, internet world.

Kirish. Xozirgi kunda dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi yuqori o'rinda insoniyat uchun juda muhim hisoblanmoqda, insoniyatga resurslarda oqilona foydalanilgan holda sifatli ekologik toza mahsulotlar tayyorlash, bu zamonaviy texnologiyalarsiz tasavur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, meva-sabzavotchilik sohasi eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmining ortishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va logistika tizimining

yaxshilanishi eksportni kengaytirishga imkon yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 dekabrda 794-son «O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari¹, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.02.2024 yildagi 107-sonli qarori Respublikada meva-sabzavot mahsulotlari eksportini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida². Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, inovatsion texnologiyalar yordamida suv- yer va boshqa resurslardan oqilona foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorga chiqarish yurtimizning agrar sohadagi yuksak maqsadidir. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun respublikamizda davlat siyosatida ham aniq reja va maqsadlar belgilab olingan. Xususan meva-sabzavotchilik sohasida avvalo ichki bozor talabidan ortiqcha ammo tashqi bozorda o'rniga ega mahsulotlarni yetishtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish.

Adabiyotlarning tahlili. Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, unda meva-sabzavotchilik sohasi katta ulushga ega. Mamlakatimiz hududi tabiiy-iqlim sharoiti, suv resurslari va mehnat salohiyati bilan raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. So'nggi yillarda meva-sabzavot eksportini ko'paytirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, global bozor talablari, logistika imkoniyatlari va mahsulot sifatini oshirish zarurati ushbu jarayonni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. agrosanoat komplekslarida ishsizlik ishlab chiqarishning qisqarishi, yuqori ishchi kuchidan foydalanish natijasida yuzaga keladigan ishlab chiqarish asboblari, kam mehnat talab qiladigan texnika va texnologiyalar va strukturaviy ishlab chiqarishning yaxshilanishi. Bunga qo'chimcha, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy-huquqiy shaklidagi o'zgarishlar, ularning ixtiyoriy ravishda iste'foga chiqishi kam ish haqi, past mehnat sharoitlari tufayli odamlar demografik muammolar bilan bog'liq. Misollar demografik jarayonlar - migratsiya, tug'ilish, o'lim va boshqalar. Qishloq xo'jaligi xodimlari faoliyatiga ko'ra mutaxassislar, menejerlar, toifalarga bo'linadi, ishchilar, xizmatchilar, kichik xizmat xodimlari³. Ularning eng keng tarqalgani ta'minlovchilardir. Ishlab chiqarish xizmatlari, ishchilar yoki moddiy qiymat yaratuvchilar. Bu soha xodimlari ham maxsus va yordamchiga bo'linadi; maxsus ishchilarga asosiy ishlab chiqarishda xizmat qiluvchilar kiradi hudud, shuningdek, yordamchi bo'linmalarda ishlaydiganlar. Korxonalarda uzoqroq ishlaydigan ishchilar vaqtinchalik, mavsumiy va doimiy bo'linadi. Doimiy ishchilar muddatsiz ishga olinadi yoki olti oydan ortiq muddatga, bu qurilish kompaniyalariga xosdir korxonada mavsumiy asosda olti oydan ortiq bo'lmagan muddatga. Zamonaviy texnologiyalardan qishloq xo'jaligida ushbu olimlarni, Boland, M. A., Chapman. S. J., Schneider V. E., Wood, G. B. o'z tadqiqotlarida meva sabzavotchilik sohasida texnologiyalarni joriy qilish orqali eksportga samarali ta'sirini guvohi bo'lamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishimiz jarayonida meva-sabzavot eksport qiladigan eksportyorlar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish natijadorligini va samaradorligini oshirishda davlat tizimi bilan mos ravishda mahalliy ishlab chiqaruvchi eksport tashkilotlarining tashqi bozorda raqobatlashish imkoniyatini yanada

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori <https://lex.uz/docs/-5179198>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.02.2024 yildagi 107-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-6825806>

³ Dexqonova N.S. Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ni eksport-import qilishning hozirgi holati va istiqbollari.

“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №3 may-iyun, 2021 yil.


takomillashtirishning o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalaridan meva-sabzavot tarmog'ining eksporti xususida zaruriy fikrlar keltirib o'tilgan. Shuningdek maqolada so'rov, tanlama kuzatuv, tadqiqot jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, koralatsion tahlil singari usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va asosiy natijalar. Xozirgi vaqtda meva-sabzavotchilik sohasini eksport salohiyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan texnologik jihatlari quydagilarni e'tibor qaratishimiz zarur. O'zbekistondan meva va sabzavotlar asosiy eksporti beshta davlat bilan cheklangan MHTI 2019–2024-yillarda meva-sabzavotlar eksporti geografiyasidagi o'zgarishlarni o'rgandi. Qabul qiluvchi mamlakatlar doirasi kengayganiga qaramay, yetkazmalarining katta qismi hali ham beshta davlat — Rossiya, Pokiston, Qozog'iston, Xitoy va Afg'onistonga to'g'ri kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2019–2024-yillarda sarxil meva-sabzavotlar eksportining geografik diversifikatsiya indeksini hisoblab chiqdi⁴. Olingan natijalarga ko'ra, tahlil etilayotgan butun davr mobaynida eksportning o'rtacha darajadagi geografik diversifikatsiyasi kuzatilgan. Meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish va ularni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha MDH davlat olimlari bir qator ilmiy izlanishlarni olib borganlar. Jumladan, S.V. Keleynikova o'z tadqiqot ishida sabzavotchilik klasterlarini boshqarishda ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, sonoat infratuzulmasi, ilmiy tadqiqot institutlari va iste'molchilar o'zaro bir biriga bog'liqligini ko'rsatib bergan⁵. Mamlakatimiz aholisini yangi meva-sabzavotlar hamda qayta ishlangan mevalarga bo'lgan talabini to'la qondirish va eksport salohiyatini yanada oshirishni har tomonlama iqtisodiy rag'batlantirish lozimligi, zahiraga olingan yerlarni aholiga ajratib berish hisobidan oilaviy tadbirkorlik, biznesni tashkil etishga ko'maklashish orqali ularni daroma-dini yaxshilash, aholi bandligini oshirish va oziq-ovqat ta'minotini yaxshilash zarurligi juda ham muhim. Meva-sabzavotchilik tashkil etishning iqtisodini tashkil qilish, avallo, sohaning strategik integratsiyalash rivojlanishni amalga oshirishda amaliyotda qo'llaniladigan tarmoqning ichki va tashki omillarini, shu jumladan, agroiqtisodiy, tashkiliy va infratuzilma xususiyatlarini chukur tahlil qilish ularning sog'lig'ini yaxshilashga yordam beradi. Bu jarayon, birinchi navbatda, mevasabzavotchilik tizimini zamonaviy texnologik standartlar va xalqqa bozorlari talablari asosida modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish chiqarish jarayon iqtisodiy barkarorligini va raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli strategik dasturlar ishlab chiqarish chikish va mahsulotlarni amalga oshirishni kerak. Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlikka erishishda samarali tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlar mazmuini zhoriy etish, institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ta'minlash, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengayishi ham maqsadga muvofiq.

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/15/export/>

⁵ производственных предприятий : автореф. дис. канд. экон. наук : 08.00.05 / С. А. Эрнст. - М., 2008. - С. 6.

⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/klasternyy-podhod-kak-instrument-sovershenstvovaniya-upravleniya-otraslyu-vosche-vodstva/viewer>



Xulosa va takliflar. Ma'lumki, meva-sabzavotchilik tarmog'i yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatiga ega bo'lgan hamda tabiiy, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan majmuaviy tarzda foydalanishga asoslangan murakkab tizimdir. Bunda olinadigan samaradorlik sezilarli darajada tabiiy-iqlim sharoitlariga, meva va sabzavot ekinlarining xududiy xususiyatlariga, ixtisoslashtirish, ishchi kuchi, moddiy-texnika bazasi va boshqa

ko'plab omillarga bog'liqdir. Demak, meva-sabzavotchilik tarmog'i ham qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, meva-sabzavotchilikni modernizatsiya qilishda tarmoq-ning alohida o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Chunki, ushbu xususiyatlarni har tomonlama chuqur o'rganish, ishlab chiqarish-ni ularga mos ravishda tashkil etish va ulardan kelib chiqqan holda tarmoq faoliyatini belgilash ko'zlangan natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Yuqorida qayd etilganlardan, bizningcha meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi, jumladan meva-sabzavot mahsulotlar tez buziluvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi bois, ularni saqlash va qayta ishlash tizimini jadal rivojlantirish lozimligi, meva-sabzavot mahsulotlari kam transportabelligi tufayli ularni tashish uchun maxsus transport vositalari hamda taralarga ehtiyojning yuqoriligi, meva-sabzavot mahsulotlarining bir qismi ximoyalangan tuproqlar va gidroponika sharoitlarida yetishtirish imkoniyatiga egaligi bois, ushbu mahsulot bilan aholini yil davomida uzluksiz ta'minlash mumkin. Shuningdek, ilm-fan yutuqlarini ilmiy ishlanmalar, ilmiy hajmdor mahsulotlar, resurstejamkor yangi texnologiyalar va boshqalar keng joriy etishni muhim o'rin egallaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.12.2020 yildagi 794-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.02.2024 yildagi 107-sonli qarori, Respublikada meva-sabzavot mahsulotlari eksportini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. Dexqonova N.S. Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ni eksport-import qilishning hozirgi holati va istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №3 may-iyun, 2021 yil.
4. Производственных предприятий : автореф. дис. канд. экон. наук :08.00.05 / С. А, Эрнст. - М., 2008. - С. 6.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/klasternyy-podhod-kak-instrument-sovershenstvovaniya-upravleniya-otraslyu-vosche-vodstva/viewer>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/15/export/>
7. <https://lex.uz/docs/-5179198>
8. <https://lex.uz/docs/-6825806>